O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO
TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

QASHQADARYO VOHASINING MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI RAVNAQIGA QO'SHGAN HISSASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

QASHQADARYO VOHASINING MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI RAVNAQIGA QO‘SHGAN HISSASI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2025-yil 11 – 12-aprel

Qarshi – 2025

УДК 950+009:006.3
ББК 63.3(5Ў) 64

“Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘shgan hissasi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2025. – 618 bet.

Ushbu to‘plamda Qashqadaryo vohasi arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb masalalari, qadimgi va antik davrda vohada sodir bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy munosabatlar, o‘rta asrlarda vohada sodir bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, sovet davri va mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, shuningdek, O‘zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalariga doir masalalar qamrab olingan.

Ushbu to‘plam keng jamoatchilik, davr tarixi bilan qiziquvchilar, tarixchilar va talaba yoshlarga mo‘ljallangan.

MAS’UL MUHARRIRLAR

Eshov Boxodir Jurayevich – tarix fanlari doktori, professor

Abdullayev O‘ktam Sheraliyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI

Raxmonov L.T.	*– Osiyo texnologiyalar universiteti rektori*
Ibragimov E.X.	*– Osiyo texnologiya universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori*
Axunjonov U.M.	*– Osiyo texnologiya universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori*
Sulaymonov R.X.	*– O‘zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori*
Ergasheva Yu.A.	*– Qarshi davlat texnika universiteti professori, tarix fanlari doktori*
Brejneva S.N.	*– Leningrad davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya Federatsiyasi)*
Voxidov Sh.X.	*– Panjikent shahridagi Tojikiston pedagogika instituti professori, tarix fanlari doktori (Tojikiston Respublikasi)*
Mo‘minova G.E.	*– Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori*
Baubekova Z.D.	*– Turon-Ostona universiteti professori, tarix fanlari doktori (Qozog‘iston Respublikasi)*
Ochilova O.R.	*– Osiyo texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
Xo‘jayorov A.O.	*– Osiyo texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti v.b.*

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 2-aprel, 9-son bayonnoma)

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2025.

MTTDA FOYDALANILADIGAN TA’LIMIY O’YIN TURLARI VA TAVSIFI

Ibragimova Gulobat Raxmat qizi
pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi
Osiyo texnologiyalar universiteti

O‘yin - tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqea, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir. O‘yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yinlari, stol o‘yini, doira bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari. O‘yin o‘zi-o‘zini bilish vositasi, o‘yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo‘lishi mumkin. O‘yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil extiyojlari bilan rivojlanadi: o‘yin-kulgi, dam olishda, ma’naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o‘rin egallaydi. O‘yin faoliyati - nafaqat madaniyatni bir elementi xisoblanadi, balki u bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita xisoblanadi. U hardoim maqsadga yo‘naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo‘l-yo‘riq hamda asoslangan harakat bilan o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatib turadi. O‘yin faoliyati ko‘proq mehnat bilan umumiylikka ega, ayniqsa bolalik davrida. Biroq o‘yin jarayonida xayotiy extiyojlarni qondirish uchun kishi moddiy boylikni yarataolmaydi. O‘yin-juda ham quvnoq jo‘shqin faoliyatidir, shuning uchun u yoshlar va bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishda katta boylik kasb etadi. Ta’limiy o‘yinlar ta’limiy o‘yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi. Ta’limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta’limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. MTTda (Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti) foydalaniladigan ta'limiy o'yinlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga (jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va estetik) yo'naltirilgan. Ushbu o'yinlar orqali bolalar o'rganish jarayonida faol ishtirok etadilar, qiziqishlarini qondiradilar va yangi ko'nikmalarni egallaydilar.

Ta'limiy o'yinlarning asosiy turlari:

1. Syujetli-rolli o'yinlar:

• Tavsifi: Bolalar hayotdagi turli xil vaziyatlarni (oilaviy munosabatlar, kasblar, voqealar va hokazo) modellashtiradilar. Ular turli rollarni ijro etadilar, o'zaro munosabatlarga kirishadilar va hayotiy ko'nikmalarni o'rganadilar.

• Maqsadi: Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, nutqni o'stirish, tasavvurni boyitish, empatiyani shakllantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish.

• Misollar: "Oila", "Shifoxona", "Do'kon", "Maktab".

2. Qoidali o'yinlar:

• Tavsifi: Oldindan belgilangan qoidalar asosida o'tkaziladigan o'yinlar. Bu o'yinlar bolalarga intizomni, qoidalarga rioya qilishni, navbat kutishni o'rgatadi.

· Maqsadi: Diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, sabr-toqatni shakllantirish, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini o'stirish.

· Misollar: Loto, domino, shashka, "To'rtburchakni top", "Kim ketdi?", "Nimani o'zgartirdim?".

3. Didaktik o'yinlar:

· Tavsifi: Ma'lum bir o'quv maqsadiga yo'naltirilgan o'yinlar. Ular bolalarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatadi, sezgi organlari orqali dunyoni bilishga yordam beradi.

· Maqsadi: Sensor rivojlanish (rang, shakl, hajmni ajratish), matematik tasavvurlarni shakllantirish (sonlar, miqdor, o'lchov), nutqni rivojlantirish, atrof-muhit haqida bilim berish.

· Misollar: "Rangini top", "Shaklini aniqla", "Kattadan kichikka", "Qanday ovoz?", "Kim qayerda yashaydi?".

4. Harakatli o'yinlar

· Tavsifi: Harakat va jismoniy faollikni talab qiladigan o'yinlar. Bu o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga, harakat koordinatsiyasini yaxshilashga, chaqqonlikni oshirishga yordam beradi.

· Maqsadi: Jismoniy rivojlanish, harakat ko'nikmalarini shakllantirish, tezkorlikni oshirish, jamoada harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish, emotsional holatni yaxshilash.

· Misollar: "Quyonchalar", "Mushuk va sichqon", "Bayroqni ol", "Kim tezroq?".

5. Konstruktorlik o'yinlari:

· Tavsifi: Turli xil konstruktor elementlaridan (kubiklar, bloklar, detallar) foydalanib, bolalar turli xil konstruksiyalar yaratadilar.

· Maqsadi: Fazoviy tafakkurni rivojlantirish, qo'l motorikasini yaxshilash, ijodiy qobiliyatni o'stirish, muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni jamlash.

· Misollar: Lego, yog'och kubiklar, magnit konstruktorlar.

6. Musiqiy o'yinlar:

· Tavsifi: Musiqa sadolari ostida o'tkaziladigan o'yinlar. Ular bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ritm hissini shakllantirishga, harakatlarni musiqaga moslashtirishga yordam beradi.

· Maqsadi: Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ritm hissini shakllantirish, emotsional ifodaviylikni oshirish, harakat koordinatsiyasini yaxshilash.

· Misollar: "Quyosh va yomg'ir", "Hayvonlarning raqsi", "Musiqiy stullar".

O'yinlarni tanlashda e'tiborga olinadigan jihatlar:

· Bolalarning yoshi va individual xususiyatlari.

· O'yinning ta'limiy maqsadi.

· O'yinning qiziqarliligi va bolalar uchun tushunarliligi.

· O'yinning xavfsizligi.

· O'yin materiallarining sifati va gigiyena talablariga javob berishi.

Ta'limiy o'yinlarni tashkil etishda:

Tarbiyachi o'yinning maqsadini tushuntirishi kerak. Tarbiyachilar tomonidan o‘yin ishtirokchilarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

· O'yin qoidalarini aniq va tushunarli qilib tushuntirish lozim.

· O'yin davomida bolalarga yordam berish va rag'batlantirish kerak.

· O'yinni yakunlash va natijalarni muhokama qilish zarur.

Ta’limiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.
3. O‘rtoqlari fikrini eshita olish
4. O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.

5. O‘yin qoidasini bajarish.

6. O‘z xatosini tan olish.

Ta’limiy o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O‘yinda o‘yin tempi va ritmi katta rol o‘ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko‘p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak , o’yin orqali bolalar har tomonlama rivojlanadi

Adabiyotlar ruyxati:

1. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMIY O‘YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI Jurayeva Xolida Mejdunarodnыy nauchnыy jurnal № 6 (100), chast 1 «Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke» yanvarr, 2023

2. MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA O‘TKAZILADIGAN HARAKATLI O‘YINLAR F.Xo‘jayev jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (Metodistlarga, yo‘riqchilarga, kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun o‘quv qo‘llanma) 2022

3. https://mpe.uz/files.

IQTISODIYOTDA MOLIYA BOZORINING AHAMIYATI

Ismatov Zokir Xuvaytovich
O‘zbekiston Respublikasi Osiyo Texnologiyalar Universiteti
Ijtimoiy gumanitar va raqamli texnologiyalar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda moliya bozorining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Moliya bozori kapitalni kontsentratsiyalash, resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda moliya bozorining asosiy funktsiyalari, tuzilishi va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri o'rganiladi. Moliya bozorining samaradorligi, shaffofligi va barqarorligi iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillari sifatida baholanmoqda. Tadqiqot shuningdek, moliya bozorini tartibga solish, nazorat qilish va rivojlantirish siyosatini tahlil qiladi. Xulosa o‘rnida ta’kidlanganidek, moliya bozori iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, uning barqaror faoliyat yuritishi iqtisodiy o‘sish va farovonlikni ta’minlash uchun zarur.

Kalit so'zlar: Moliya bozori, kapital, investitsiyalar, resurslarni taqsimlash, iqtisodiy o'sish, samaradorlik, shaffoflik, barqarorlik, tartibga solish.

Kirish: Moliya bozori iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy resurslarni taqsimlash, kapitallarni jalb etish va investitsiyalarni yo'naltirishda katta rol o'ynaydi. Moliya bozorlari nafaqat korxonalar va davlatlar uchun zaruriy moliyaviy vositalarni taqdim etadi, balki shaxsiy investorlar uchun ham diversifikatsiya va risklarni boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu maqolada moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati, uning funksiya va mexanizmlari, shuningdek, samarali moliya bozorining iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'siri ko'rib chiqiladi. Moliya bozorlarining mustahkamligi va samaradorligi iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim omil hisoblanadi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliyotlar bizga yangi imkoniyatlar va jihatlarni ochib berishi kutilmoqda.

Asosiy qismi: Kapital taqsimoti samaradorligini oshirish:

- Markovits portfel nazariyasi: Investorlar o’z portfellarini risk va daromadlilik o’rtasidagi muvozanatni optimallashtirishga harakat qiladi. Portfelning kutilayotgan daromadi quyidagicha ifodalanadi:

$E(Rp) = \sum wi * E(Ri)$

Bu yerda:

E(Rp) - portfelning kutilayotgan daromadi

wi - i-aktivning portfeldagi ulushi

E(Ri) - i-aktivning kutilayotgan daromadi

Portfelning xavfi (standart chetlanishi) quyidagicha ifodalanadi:

$\sigma p = \sqrt{\sum\sum} wi * wj * Cov(Ri, Rj)$

Bu yerda:

σp - portfelning standart chetlanishi

Cov(Ri, Rj) - i va j aktivlar daromadliligi o’rtasidagi kovariatsiya

- Kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM): Aktivning kutilayotgan daromadi bozor xavfi bilan bog’liq:

263.	Esanova M.U.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish	1031
264.	Eshqobilova D.K.	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash	1036
265.	Eshqulov Y.A.	Raqamli texnologiyalar yordamida tyutorlarning metodologik madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari	1038
266.	Ibragimova G.R.	MTTda foydalaniladigan ta'limiy o'yin turlari va tavsifi	1040
267.	Ismatov Z.X.	Iqtisodiyotda moliya bozorining ahamiyati	1043
268.	Ismoilov B.Q.	Ta'lim tashkilotlarida huquqiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari	1047
269.	Ismoilova M.Q.	The background of the study of terms used in social media marketing	1050
270.	Jo'rayeva M.	The history of developing students' speaking skills	1053
271.	Jovliyev Sh.B., Jovliyev B.X.	Mustaqillik yillarida biotexnologiya fanining rivojlanishi	1056
272.	Mamatqulova Sh.	Devotion in paremiology: a cross-cultural comparative analysis of self-sacrifice and loyalty in uzbek and english proverbs	1061
273.	Худайбердиева Х.К.	Актуальные вопросы в формировании способностей.	1064
274.	Samadiy Kh.A.	Advantages and disadvantages of shareholders and a supervisory board	1067
275.	Samadiy Kh.A.	Mcdonald's policy and global integration process during the covid-19 pandemic	1073
276.	Yavkocheva F.H.	Realiya va lakunalar haqida umumiy tushunchalar, asosiy kategoriyalar va ularning kelib chiqishi	1076
277.	Турсунова С.Ю.	Советский период и годы независимости: современные этапы развития информационных технологий в педагогике кашкадарьинской области	1080
278.	Nazarov R.	O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni	1083
279.	Nazarova M.	Jadalashtitrish strategiyasida – yuksak talablar	1086
280.	Niyozova S.I.	Ommaviy madaniyatning milliy mentalitetimizga ta'siri	1089
281.	Raxmatova N.I.	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlashning o'rni	1091
282.	Azamat S.	Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish-zamon talabi.	1094
283.	Sharofutdinova N.K.	Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi	1096

284.	*Tursunova S.Y.*	*Qashqadaryo yoshlarini va ilm-fan sohasidagi mutaxassislarni axborot texnologiyalariga jalb qilish*	*1099*
285	*Iskandarova M.Q.*	*Neolit davri xususiyatlari (Xorazm misolida)*	*1102*